

SHO'RKO'L KO'LINING REKREATSIYA VA TURISTIK IMKONIYATLARI

Namozov Jo'rabek Abduazizovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Geografiya kafedrası dotsenti, g.f.f.d.(PhD),
dotsent

Nurqobilova Yulduz Bahrom qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
talabasi

Annotatsiya. Maqolada Dehqonobod tumani Konsoy qishlog'ida joylashgan shifobaxsh dam olish maskani hisoblangan, aholiga Sho'rko'l nomi bilan tanilgan ko'l haqida batafsil to'xtalib o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Konsoy qishlog'i, Sho'rko'l, Xo'jaipok ota, Jayrabuloq bulog'i, Jaynoqota ziyoratgohi, tuz kon.

Resume. The article focuses on the lake known as Shorkol, which is considered a healing resort located in the village of Konsoy, Dehkanabad district, and analyzes its characteristics in detail.

Key words: Konsoy village, Sho'rkol, Khojaipok father, Jairabulok spring, Jainoqota shrine, salt mine.

Kirish. Qashqadaryo viloyati o'zining tabiiy geografik sharoitiga bog'liq holda bir qancha turdagi tabiiy rekreatsiya obyektlariga, xususan, gidrologik resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Hisor tog'ining janubiy-g'arbiy tarmoqlarida shifobaxsh suvlar, ko'hna archalar, go'zal sharsharalar va ziyoratgoh joylar yurtimizning betakror ekoolamiga ega ekanligidan dalolat beradi. Mazkur resurslardan dam olish va davolanish maqsadlarida samarali foydalanishni tashkil etish uchun ularni ilmiy amaliy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda, viloyatda rekreatsiya va turizm sohasi jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda Dehqonobod tumanining Konsoy qishlog'ida joylashgan Sho'rko'l ko'li ham muhim rekreatsiya va turizm obyektlaridan biri hisoblanadi[1].

Asosiy qism. Konsoy qishlog'i undan oqib o'tuvchi shu nomdagi soy atrofida aholining joylashishi natijasida shakllangan, ya'ni Konsoy - Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi soy. Kichik O'radaryoning chap irmog'i. Boysun tog'lari yon bag'irlaridan boshlanuvchi 20 ga yaqin irmog'i bor. Uzunligi 30 km, havzasining maydoni 247 km². Mavsumiy qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Yilliq o'rtacha suv sarfi 0,35 m³/sek. Bahorda suvi ko'payadi, yozda esa kamayib, Kichik O'radaryogacha yetib bormaydi uning suvi sug'orishga sarflanadi. Konsoy daralari va chashmalari qadimdan mashhur

bo'lib kelgan. Qip-qizil daralar kishini o'ziga maftun etadi. Bu daralarga kirish Qoradahna qishlog'idan boshlanadi (“dahna” so'zining ma'nosi ko'pchilikka tanish qop-qora tepa yoki qirlar). Qishloq ana shunday tepa va qirlardan iborat bo'lganligi bois joy Qoradahna deb nomlanadi. Qishloqning janubida Jayrabuloq deb nomlangan buloq bor. Buloqdan pastlikda kata g'or bo'lib, ichiga chiroq yoqib kirish mumkin. Mahalliy xalq g'orning bir uchi Qoriz darasiga olib chiqadi deb aytishadi. Buloq yonida Jaynoqota deb nomlangan katta ziyoratgoh bo'lib, bu yerga Xolmurod ismli yigitning qabri bor, deyishadi”. Xolmurod esa odamlarni birlashtirib, bosqinchilarga qarshi kurashgan va ularni mag'lub qilgan. Ana shundan keyin bosqinchilar qishloqqa qadam qo'yishmagan” degan rivoyatlar bor [2].

Sho'rko'l haqida rivoyatlar juda ko'p. Ko'l tarixini o'rganish maqsadida tuman yozuvchisi Toshqulov Karim tomonidan yozilgan “Dehqonobod - obod yurtim” kitobida keltirilgan ma'lumotlar bilan ham tanishib chiqildi. Unda rivoyat qilishlaricha, bir oq tuya sho'rko'lga kirib g'oyib bo'lgan va Oqbosh tog'i etagidagi Ko'ktepa otada bir ko'rinish berganu yana Sarg'ay ota tog'iga chiqib, Xo'jaipok otaga borib g'oyib bo'lgan deyiladi. Bundan tashqari juda ko'p shifobaxsh madanlar tarqalgan. Xo'jaipok ota nomli Sho'rko'lga o'xshash ziyoratgoh mavjud bo'lib, lekin ikkisi tarkibi jihatidan farq qiladi. Xo'jaipok ota ziyoratgohi suvi kaliy tuzli, Sho'rko'l esa natriy tuzli ko'l hisoblanadi. Sho'rko'lga borish yo'lida u sharshara bo'lib oqib tushadigan Sharsharota ziyoratgohi ham bor. Ushbu ziyoratgohga kasallar, farzandi yo'q oilalar tashrif buyuradilar. Sho'rko'l suvi tarkibida shifo beruvchi madanlar ko'p. Yoz oylarida bu yerga shifo istab keluvchilar bilan gavjum bo'ladi. Bu buloqdan shifobaxsh o'ziga xos bo'lgan oq tuz aralashli suv chiqib turadi va buloq atrofida kichik (taxminan bo'yi 50 metr, eni 50 metr) ko'lni hosil qiladi. Bu yerda tuz koni borligi sababli ko'l suvi kishilarni ko'tarib turadi. Tuzlardan aholi kundalik ehtiyoji maqsadida foydalanishadi. Sho'rko'l suvi tarkibida natriy, xlor kabi moddalar ko'p. Ko'lning suvi sho'r bo'lsa-da, ko'plab kasalliklarga davo bo'ladi. Cho'milgan tanaga yig'ilgan tuz badanni o'ziga xos “massaj” qiladi. Ayniqsa, issiq balchig'iyanda foydali. Balchiqda ko'pi bilan 15-20 daqiqa turish mumkin. Bu shifo maskaniga shifokor maslahati bilan davolanish maqsadga muvofiqdir. Bu yerda suvda cho'milib, balchiqqa tushgan insonlar teri-tanosili va boshqa ko'plab har xil bo'g'im og'riqlari, qon tomir, har xil ichki a'zo kasalliklari va boshqa shunga o'xshash kasalliklarga davo topish uchun boradilar[3]. Ko'l atrofida tashrif buyuruvchilar uchun Xo'jayi Sof ota nomli ziyoratgoh mavjud bo'lib, ziyoratchilar tomonidan alohida ahamiyat kasb etib

kelmoqda. Sho'rko'lga asosan qo'shni Surxondaryo, Samarqand, Buxoro va shu bilan bir qatorda respublikamizning barcha viloyatlaridan kishilar kelib shifo topadilar. Lekin bu ko'l haqida hech bir manbalarda biron bir ma'lumot keltirilmagan. Faqatgina tumandagi ayrim yozuvchi, shoirlarning ayrim kitoblarida oz bo'lsa-da ma'lumot uchratishimiz mumkin. Shu paytgacha ko'l hududi ilmiy tomonlama biron marta ham o'rganilmagan. Ammo xo'jalikda nafaqat hudud aholisi balki mamlakatimiz, qo'shni Qozog'iston va Qirg'iziston hududidan ham dam oluvchilarning tashrif buyirishi e'tiborni tortadi. Tashrif buyurgan bemor-u dam oluvchilarga faqatgina Sho'rko'lning sho'r suvlari shifo bo'lib qolmasdan, u yerning toza havosi ham kishilar dardiga shifo vazifasini o'taydi.

XULOSA

Hozirgi kunda ko'l hududi xususiy tadbirkor tomonidan xususiylashtirgan holda ko'l atrofida kichik bo'lsada dam oladigan xonalar tashkil etilgan, lekin bu dam oluvchilar ehtiyojini qondirmaydi. Sho'rko'l hozirgi kunda turistlar ham diqqat e'tiborini jalb etayotganligi bois uning atrofida turistlar uchun mehmonxona tashkil etish, ular uchun kerakli sharoitlarni yaratish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishlari uchun savdo rastalarini ham tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman. Mana necha yildirki bu ko'l insoniyatga xizmat qilib kelmoqda, lekin masalaning ikkinchi tarafi ham bor. Ko'l insonlarga foyda keltirib, ularning dardlariga shifo bo'layotgan bo'lsa, insonlar tomonidan ko'l atrofidagi jonli tabiatga salbiy ta'sirlar ham yo'q emas, albatta. Ko'l hududida rekreatsiya resurslarini joylashtirishda uning atrof muhitiga zarar yetkazmaslik chora tadbirlarini ham inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dehqonobod tumani suv iste'molchilari uyushmasi ma'lumotlari.2018-2022.
2. Ravshapov P. "Qashqadaryo viloyati geografiyasi". Qarshi.1993.
3. Toshqulov K."Dehqonobod - obod yurtim". Qarshi, 1998.
4. <https://www.qashstat.uz/uz/>
5. www.vikipediya.uz